

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHIDA "PSIXOLOGIYA BILIMDONI" TANLOVLARINING ROLI

J. Saydullayev

SamDCHTI tadqiqotchisi (psixolog)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7342958>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni dunyoviy bilimlar bilan qurollantirib ong darajasini yuksalturish xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil qilish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda. Maqolamizda "Psixologiya bilimdoni" tanlovinining talabalar dunyoqarashining shakllanishidagi rolini ham yoritishni maqsad qilganmiz.

Kalit so'zlar: yoshlar, psixologiya, ijtimoiy, dunyoqarash, shaxs, rivojlanish, psixik hodisalar, intellectual.

РОЛЬ ВЫБОРА «НАУКА ПСИХОЛОГИЯ» В ФОРМИРОВАНИИ НАУЧНОГО МИРА СТУДЕНТОВ ВУЗА

Аннотация. В данной статье одним из важнейших направлений государственной политики в сфере народного образования является развитие интеллектуального и творческого потенциала молодежи, создание необходимых условий для поддержки и поощрения талантливых детей, повышение уровня их сознательности, вооружая их мирскими знаниями. Стремительное развитие страны в перспективе требует повышения качества работы по выявлению юных дарований, организации системы отбора и обучения талантливых детей, создания многопрофильной образовательной среды, способствующей раскрытию интеллектуального потенциала подрастающего поколения. делает. В нашей статье мы стремимся осветить роль конкурса «Ученый-психолог» в формировании мировоззрения студентов.

Ключевые слова: молодежь, психология, социальная, мировоззрение, личность, развитие, психические явления, интеллектуал.

THE ROLE OF THE CHOICE "SCIENCE PSYCHOLOGY" IN THE FORMATION OF THE SCIENTIFIC WORLD OF UNIVERSITY STUDENTS

Abstract. In this article, one of the most important areas of state policy in the field of public education is the development of the intellectual and creative potential of young people, the creation of the necessary conditions for supporting and encouraging talented children, and raising their level of consciousness. arming them with worldly knowledge. The rapid development of the country in the future requires improving the quality of work to identify young talents, organizing a system for selecting and training talented children, creating a multidisciplinary educational environment that helps to unlock the intellectual potential of the younger generation. does. In our article, we strive to highlight the role of the "Scientist-Psychologist" competition in shaping the worldview of students.

Keywords: youth, psychology, social, outlook, personality, development, mental phenomena, intellectual.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, yoshlarni ta'lim jarayonida intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi. Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Fanlar bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlar talabalarning ilmiy dunyoqarashlarining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Psixologiya bilimdoni tanlovi talabalariga inson ichki dunyosi ya'ni yo'nalganlik, xarakteri, qobiliyatining shakllanish sharoitlari haqida ilmiy ma'lumotlarni beradi. Psixologiya fani shaxsni o'rganishga qaratilganligi talabalarda insonning ichki dunyosiga qiziqish, uning mohiyatini bilib olishga intilishi, boshqa odamlar va o'zining shaxsiy psixik xususiyatlarini tushunishga chorlaydi, o'z xotirasi, diqqati, irodasi, xarakterining sifatlarini bilib olishga intilish va ularni takomillashtirishda, talabalarda o'z-o'zini anglashning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Talabalarning inson ichki dunyosiga qiziqishlaridan mohirona foydalanib, ularga o'zlarida ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan sifatlarini tarbiyalashda jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini his etishga yordam beradi va shu orqali o'z-o'zini tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Psixik hodisalarni ilmiy tushuntirish quyidagi qoidalar asosida qurilishi kerak: Barcha psixik hodisalar psixologiyada haqiqatni aks ettirish sifatida qaraladi. Faoliyat jarayonida dunyoni aks ettirib, inson atrof dunyodagi predmetlar va hodisalar haqida bilim oladi. Haqiqatni aks ettirish faol xarakterga ega bo'ladi, chunki ular atrofni o'zgartirib va qayta tashkil etish uning faoliyati jarayonida sodir bo'ladi. Insonning hamma idrok etganlari uning individual xususiyatlari, to'plagan tajriba va bilimlarida aks ettiradi. Psixik faoliyati jarayonida inson ongida obyektiv dunyoning subyektiv obrazi shakllanadi; Psixika alohida usulda tashkil topgan materiya — miyaning xususiyatidir; Insonning barcha psixik faoliyati sabablarga asoslangan bo'ladi. Ularning tashqi muhit ta'siri va bu ta'sir ko'rsatishlarga javob qaytaruvchi shaxsning ichki holati bilan yuzaga keladi. Insonning fikri va sezgilari, uning hamma harakatlari va ishlari oldingi hayoti, atrof sharoiti va tarbiyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Ularni tushuntirish uchun uning harakatlari sabablarini bilish kerak. Ularni yuzaga keltiruvchi sabablar, inson qanday sharoitlarda o'sgani, uni qanday odamlar o'rab turganini, ular bilan munosabati qandayligini bilish kerak; Insonning psixikasi uning faoliyatida namoyon bo'ladi va shakllanadi; Har bir psixik hodisa uning yaxlitligida o'rganilishi kerak. Inson psixologiyasi yaxlit shaxs psixologiyasidir. Shaxsning o'ziga xosligi, uning yo'nalganligi, bilimi, hayot tajribasi psixik jarayonlarning o'ziga xosligini kasb etadi. Hayratlilik xislati ko'plab psixik jarayonlarni o'tib borishi xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Faoliyat jarayonida shakllangan shaxsning psixik xislatlari, jarayonlari vaqt o'tishi bilan o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularning xarakterini o'zgartiradi, insonning harakatlarini belgilaydi. Bundan ko'rinadiki shaxsning hamma tomonlari o'zaro bog'liqdir. Shaxsning yo'nalganligi uning faoliyati sababi, maqsadga muvofiq harakatlariga, qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shaxsning yo'nalganligining o'zgarishi va uning sezgilari mazmuni yangi talablar va qiziqishlarining yuzaga kelishi bilan bog'liq. Psixologiya o'qituvchisi talabalar olayotgan psixologik bilimlar

abstrakt va rasmiy bo'lib qolavermasliklari, ulaming bolajak kasbiy faoliyatlarida qo'lanma, ishonchga aylanishiga intilishi kerak. Bunday ahamiyatlilikni kasb etishining asosiy sharti inson o'z tajribasi orqali olgan bilimlarini tekshirib chiqishi, mustaqil o'ylab olishi, idrok etayotganini boshdan kechirishi va unga nisbatan o'z munosabatini aniqlab qolishi kerak. Aynan shuning uchun talabalarning mustaqil ishlari, inson psixik faoliyati haqida ma'lumotlar to'plashlari, ularni tahlil qilish va tushuntirishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalarda ilmiy, nazariy-mustaqil materialistik dunyoqarashni shakllantirish uchun o'qituvchi o'zining psixologik bilimlariga hissiy munosabatini yaqqol ifoda etilganligi, bayon etilayotgan nazariy qoidalarini haqiqiyliigi, to'g'riligiga ishonishi juda muhim hisoblanadi.

O'qituvchining bunday munosabati talabalarda fanga qiziqishni oshiradi, psixologik bilimlarni egallab olish va ularni mustaqil kengaytirishga intilishlariga sabab boiadi. O'qituvchi fanning zamonaviy holatini va hozirgi davrda psixologik tadqiqotlarlardan to'la xabardor bo'lishi, o'quvchilarda yuzaga keladigan savollarga javob bera olishi muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonundagi belgilangan ustivor vazifalarni hayotga tadbiq etish maqsadida oily ta'lim muassasalarida "Psixologiya bilimdoni" tanlovini o'tkazish an'anaga aylangan. Tanlovning asosiy maqsadi – yuqori saviyada iqtidorli, talantli talaba yoshlarning keng imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, targ'ib qilish, psixologiya sohasida o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda izlanuvchan va mehnatsevar yoshlarni qo'llab-quvvatlab imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Psixologiya bilimdoni tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Iqtidorli, izlanuvchan talaba-yoshlarning imkoniyatlarini ko'rsatib berish hamda ilmiy salohiyatlarini yuzaga chisarish;
- talaba yoshlarda ijodkorlik, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik tuyg'ularini shakllantirish;
- yoshlarning o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega istedadli izlanuvchan yoshlarni qo'llab quvvatlash.

Tanlov shartlari va baholash mezonlari

Tanlov shartlari.

1-shart: Test sinovlari.

Bu shartda "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda tuzilgan 20 ta test savollariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda javob beradi.

Test savollari onlayn beriladi hamda javob berish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

2-shart: Psixologik bilimdonlik.

Bu shartda Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tomonidan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda tuzilgan va konvertda muhrlangan 4 ta savolga javob beradi.

Savollarga javob berish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

3-shart: Videorolik.

Bu shartda talaba yoshlarning kundalik hayotda kishilar uchun psixologik bilimlarning ahamiyati, ruhiy zo'riqishlarning oldini olish va bartaraf etish omillari, ruhiy barqarorlik, sog'lom turmush tarzi asoslari, qiziqarli psixologiya kabi tayorlagan mativatsion videoroliklarni taqdim etadilar.

4-shart: Bu shartda talaba yoshlar ozlarining ilmiy maqolalari va tezislari bilan ishtirok etadilar.

Tanlov shartlarini baholash mezonlari.

Tanlov ishtirokchilari 100 ballik tizimda hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

1-shart: Test sinovlari.

Ushbu shart jami 20 ballgacha (bitta to'g'ri javobga 1 ball) baholanadi.

Unda, ishtirokchi belgilangan vaqt davomida 20 ta test savollariga javob beradi.

2-shart: : Psixologik bilimdonlik..

Ushbu shart jami 20 ballgacha (bitta savolning to'g'ri javobiga 5 ballgacha) baholanadi.

Shartni baholashda istirokchining hozirjavobligi va aniq faktlar asosida javob berishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3-shart: Videorolik.

Ushbu shart jami 20 ballgacha baholanadi.

Shartni baholashda mavzuning to'g'ri tanlanganligi, ochib berilishi, olgan bilimlarning aks ettirilishi, o'quvchilarning ijodkorligi va mahoratlari inobatga olinadi.

4-shart. Ilmiy maqola va tezislar.

Ushbu shart jami 20 ballgacha baholanadi.

5-shart. Psixologik atamalardan krasvordlar tuzish.

Ushbu shart jami 20 ballgacha baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Psixologiya bilimdoni" kabi fan tanlovlarida fanlar asoslarining talabalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Yangi O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir, chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir.

REFERENCES

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil.
2. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 4-7.
3. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
4. Саидов А. педагогик mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
5. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.
6. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.

7. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
8. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.
9. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 313-318.
10. Ismoilovich, S. A. SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGY OF A HEALTHY LIFESTYLE OF FAMILIES.
11. Azamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2417-2420.
12. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 867-871.
13. Axmedov A. OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA’SIRI VA UNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 1115-1118.
14. Axmedov, A. (2022). The negative effect of internet gambling on youth psychology. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 76-79
15. Diyorugli, A. A. (2022). The negative effect of public culture on youth consciousness and its social psychological features. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 289-291.
16. Ugli, Akhmedov A. D., et al. "Depressive Behavior in Sports Competitions and Their Characteristics of Will-sustainability." *JournalNX*, vol. 6, no. 04, 2020,pp. 50-53